

Dilnoza AXMEDOVA,

Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilnozaaxmedova933@gmail.com

Tel: (90) 173 00 77

ADU katta o'qituvchisi, p.f.d (PhD) M.E.Abdullayev taqrizi ostida

THE CONTENT OF STUDENT MOTIVATION AND EDUCATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS (IN THE EXAMPLE OF PRIMARY CLASSES)

Annotation

This article highlights the importance of the method of stimulation in the development of social relations and cognitive activity of elementary school students. Analytical information on the education of students through motivation, comments on the work of pedagogues and psychologists in this direction are given. The methods of using interactive methods of motivating students, increasing their knowledge and ensuring interdisciplinary connection, and using proverbs and riddles aimed at their spiritual and moral education are highlighted.

Key words: Education, pedagogical technology, social attitude, education, cognitive activity, stimulus, incentive, motivation, proverb, riddle, integration.

СОДЕРЖАНИЕ МОТИВАЦИИ И ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ (НА ПРИМЕРЕ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ)

Аннотация

В данной статье подчеркивается значение метода стимуляции в развитии социальных отношений и познавательной деятельности учащихся младших классов. Даны аналитические сведения по обучению студентов через мотивацию, комментарии к работе педагогов и психологов в этом направлении. Освещены способы использования интерактивных методов мотивации учащихся, повышения их знаний и обеспечения межпредметных связей, а также использования пословиц и загадок, направленных на их духовно-нравственное воспитание.

Ключевые слова: Образование, педагогическая технология, социальная установка, воспитание, познавательная деятельность, стимул, стимул, мотивация, пословица, загадка, интеграция.

O'QUV JARAYONIDA O'QUVCHILARNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI TARBIYALASH (BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA)

Anotatsiya

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatlarga kirishishi hamda kognitiv faoliyatini rivojlantirishda rag'batlantirish metodining ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarini rag'batlantirish orqali tarbiyalash borasida tahliliy ma'lumotlar, pedagog va psixolog olimlarning bu yo'nalishdagi ishlariga sharxlar berilgan. O'quvchilarini rag'batlantirishning interfaol usullaridan foydalanish, ularning bilimini oshirish va fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgan maqol va topishmoqlardan foydalanish metodlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif, pedagogik texnologiya, ijtimoiy munosabat, tarbiya, kognitiv faoliyat, rag'bat, motivatsiya, maqol, topishmoq, integratsiya.

Kirish. Zamonaviy ta'lif tizimida pedagoglar, jumladan boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatida metodik tayyoragarlik darajasini oshirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta'lifni jahon mijyosida barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lif sifatini ta'minlash esa yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va samarali interfaol metodlar asosida o'qitishni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ularning xatti-harakatlari va intellektini munosib rag'batlantirib borish o'quvchilarning ta'lif olishga bo'lgan motivilarini orttiradi va ularning tarbiyasi hamda psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yangi madaniy qadriyatlarga asoslangan jamiyatimizda kichik maktab yoshi va boshlang'ich ta'lifdan boshlab bolalarning intellektual rivojlanishi pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir. Bugungi davlat siyosati ta'lif-tarbiya oluvchilarining haq-huquqlari va rivojlanish imkoniyatlarini qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, pirovardida bolani har tomonlama rivojlanirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratishga qaratilgandir. Buning uchun bolalarning ongi, xulq-atvorlari va ta'lif-tarbiya jarayoniga moslashishlari uchun yangi interaktiv metodlardan foydalanish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida mavzu yuzasidan dunyo pedagog va pixolog olimlari ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan bo'lib, jumladan, A.Adler [2], Deyzi, Shvartz, A.S. Makarenko, Sh.A. Amonoshvili, B.G. Ananyev [3], D.J. Ludvig va M.L. Maehr [6], V.P.Bespalko, A.Maslou [7], N.E. Shchurkova, Hillman B. V. va F. Shilds [5] va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Hozirgi vaqtida o'quvchilarda sinfdagi ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantirishning samarali usuli sifatida rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun empirik dalillar ozroq miqdorni tahlil etadi. D.J. Ludvig va M.L. Maehr [6] rag'batlantiruvchi metodlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zini anglash va xulq-atvor afzalliklariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va boshqalar tomonidan rag'batlantirish o'z-o'zini anglashning ortishiga va xatti-harakatlar yo'nalishini yaxshilanishiga olib kelishini o'zlarining ilmiy izlanishlari davomida isbotladilar.

B.G. Ananyevning fikriga ko'ra sinfdagi ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantirishning samarali usuli sifatida rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun emprik dalillar ozroq miqdorni tahlil etadi. D.J. Ludvig va M.L. Maehr [6] rag'batlantiruvchi metodlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zini anglash va xulq-atvor afzalliklariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va boshqalar tomonidan rag'batlantirish o'z-o'zini anglashning ortishiga va xatti-harakatlar yo'nalishini yaxshilanishiga olib kelishini o'zlarining ilmiy izlanishlari davomida isbotladilar.

B.G. Ananyevning fikriga ko'ra sinfdagi ijobiy maktab o'quvchilarida ongli intizomni singdiruvchi muhim omillardan biridir. Bu ayniqsa, diqqat, qiziqish, fikrlash va xotirani faollashtirishga tegishli. Bunday darsda maktab o'quvchilarining aqliy mehnat jarayoni o'qituvchining ta'siri bilan rag'batlantiriladi. Darsni mavhum pedagogik va psixologik-pedagogik o'r ganishning nuqsoni shundaki, ular bu rag'batlantirishni darsning butun jarayoni bilan ajralmas bir butunlikni tashkil etuvchi bir vaqtida e'tibor markaziga qo'ygan. Yana uning ta'kidlashicha "bir fanning usullarini boshqa sohaga "ko'chirish" jarayoni psixologiyaga tobora ko'proq ta'sir qiladi, bu nafaqat fanlar integratsiyasining kuchayishi umumiyy qonuniyati bilan izohlanadi, balki fanlar tizimida psixologiya mavqeining o'ziga xos o'zgarishiga sabab bo'ladi." [8]

B. V. Hillman va F. Shilds [5] yo'l-yo'riq bo'yicha maslahatchi lavozimida ishlagan holda, olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari davomida og'zaki rag'batlantirish va natijalarini bilish o'quvchilarining muvaffaqiyati va darslarga qatnashish darajasini yaxshilashda samarali usul ekanligini ko'rsatdilar. Bunda maslahatchi o'qituvchi-tarbiyachi sifatida sinfdagi o'quvchilarining

muvaffaqiyati, darslarga qatnashishi va xulq-atvorini yaxshilash uchun rag‘batlantirish usullaridan foydalanishni qanday qilib modellashtirishga qodirligini ko‘rsatadi. Maktab maslahatchilar uchun bir nechta samarali metodlarni taklif etadi. [8]

Ushbu tadqiqot rag‘batlantirishning nazariy asoslarini xatti-harakatlar tahlilida topilgan tadqiqot asoslari bilan birlashtirdi. Tadqiqotning maqsadi – rag‘batlantirishning samaradorligini aniqlash edi. Xulq-atvor ya‘ni o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholashni tahlil qilish tadqiqot metodologiyasidan foydalanish orqali boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining sinfdagi xatti-harakatlarini rag‘batlantirishning Adlerian kontseptsiyasi edi. Endi Alfred Adlerning nazariyalariga asoslangan ba‘zi nazariy taxminlarni ko‘rib chiqamiz.

Adlerning individual psixologiyasi insonning shaxsiy rivojlanishini uning individual xususiyatlari, kamchiliklari va yutuqlari, xususiyatlari, hamda jamiyat bilan o‘zaro aloqasini o‘rganish orqali belgilaydi. Adler individual psixologiyasi texnikasi 4 qismidan iborat bo‘lib: Modellashtirish, qo‘lni qo‘lga berish, hayolan harakatlanish va rag‘batlantirishdan iborat. [2]

Adler inson barcha faoliyatining asosiy motivatsion kuchini pastlik tuyg‘ularidan ustunlik, mukammallik, yaxlitlik tomon o‘tishga intilish deb ta‘riflagan. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bu pastlik tuyg‘ulari samarasiz va o‘z-o‘zini yo‘q qiladigan xatti-harakatlar orqali kompensatsiya qilish zarurati bilan tavsiflanishi mumkin. Adler insonni birinchi navbatda o‘z hamkasbi bilan ijtimoiy munosabatlari natijasida aniq inson bo‘lgan ijtimoiy mavjudot sifatida tan oldi. Insonning xulq-atvorini tushunish uchun insonni o‘ziga xos ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak. Xulq-atvorning ahamiyati uning muayyan ijtimoiy kontekstdagi oqibatlaridadir [2].

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-aprelda PF-5712-sod Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlanishir konsepsiysi” 2-bob 5-bandiga tegishli o‘quv jarayonini tashkil etish sohasidagi holat va muammolarni yechishda “o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilishi” hamda pedagoglarning metodik ta’minotini yaxshilash lozimligi haqida vazifalar belgilab berilgan.[1]

Inson ijtimoiy o‘zaro bog‘liqliksiz mayjud bo‘lolmasligi sababli, uning ijtimoiy intilishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy izlanishga aylanadi. Shaxsning rivojlanishida shaxsning jamiyatdagi o‘rni va uning ijtimoiylashuv munosabati yotadi. Bola ijtimoiy jihatdan interaktiv mavjudot bo‘lib, uning muammolari shaxsiy ichki kurash natijasida emas, balki boshqa odamlar bilan shaxslararo nizolardan kelib chiqadi.[7]

Bolaning boshqalar bilan munosabatlarini kuzatish orqali biz uning xatti-harakatlarining sabablarini tushunishimiz mumkin. Ijtimoiylashuv tushunchasi Adlerning asosiy nazariyasi uchun eng muhim tushuncha. Ijtimoiy qiziqish guruhga va boshqa shaxslarga nisbatan tegishlilik hissi sifatida tasvirlanadi. Bu bolaning boshqalarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Bu uning boshqalar bilan hamkorlik qilish va hayotiy vaziyatlarni o‘zlashtirish qobiliyatining ifodasidir. Ijtimoiy qiziqishning pasayishi bolaning ish (ta’lim) roli va ijtimoiy munosabatlarning asosiy hayotiy muammolarini o‘zlashtirishdagi tushkunligining aksi sifatida qaraladi. Rag‘batlantirish bolaning hayotiy vazifalarni hal qilishda jasoratini oshiradi va pirovardida ijtimoiy qiziqishni oshiradi.

O‘qituvchining og‘zaki yoki yozma ravishda o‘quvchilar xatti-harakatini stimullashi bolaning orzu qilgan xatti-harakatini qayta-qayta bajara olish ehtimolini oshiradi. U bolaning xulq-atvorini emas, balki bolani ta’kidlaydigan og‘zaki bayonotlarni istisno qiladi. Ular “Bugun yaxshi ish qilyapsan”, “Oldinga qarab intilyapsan”, “Qarang, bu muammoni qanchalik yaxshi uddalagansiz”, “Siz bugun o‘z muammolaringiz ustida jimgina ishlagan holda hamkorlik qildingiz”, “Bugun ishingizni yakunlaganingiz uchun siz bilan faxrlanaman” kabi fikrlarni o‘z ichiga olgan og‘zaki qo‘llab-quvvatlash usullaridir. Ushbu sharhlar o‘qituvchining bola xatti-harakatlariga nisbatan his-tuyg‘ularini emas, balki bolaning faoliyati to‘g‘risidagi haqiqatni ko‘rsatdi.

Ta’lim berish jarayonida o‘quvchining namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat qilip ko‘rsatish, taqdirlash – rag‘batlantirish hisoblanadi. Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobji baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash metodidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobji o‘zgarishlarni anglab olishi zarur [10].

Rag‘batlantirish jarayoni, juda murakkab, juda malakali tarbiyaviy yondashuvni talab qiladigan, nafaqat javobning to‘g‘riligini aniqlash, balki o‘qituvchining simpatik tajribalarini ifodalovchi hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ham talab qilinadi. Bunday holda, baholashning rag‘batlantiruvchi funksiyasi hatto yo‘naltiruvchi funksiyadan ustun turadi: “Shunday qilib, siz buni to‘g‘ri bajardingiz”, “Ha, to‘g‘ri... bu xuddi shu ruhda” va hokazo. Yuqoridagidek vaiyatlarda o‘qituvchi qo‘rroq, ikkilanadigan, kasal bolalar yoki yangi o‘quvchilar bilan muomala qilganda, o‘quvchi o‘z javoblarining sinov xususiyatini aniqlasa va ularning to‘g‘riligiga shubha qilsa, o‘qituvchi muvaffaqiyatning bunday ta’kidlanishiga murojaat qiladi, bu bir tomonдан o‘quvchini qayta baholashga majburlamaydi (masalan, unga “juda yaxshi”, “yaxshi”, “undan o‘rganing, bolalar”), boshqa tomonidan, u o‘quvchiga hissiy jihatdan stenik ta’sir qiladi, fikrashi va bergan javobiga nisbatan ishonch bildiradi. Rag‘batlantirish – bu ma‘lum psixologik vaziyatlarda m‘lum ta’sirlar uchun to‘g‘ri, sinovdan o‘tgan pedagogik usul bo‘lib, odatda faqat maktab o‘quvchilar guruhiining muvaffaqiyat darajasi va xarakterologik xususiyatlarga nisbatan aniq bo‘lganlarga qaratilgan.[4]

O‘quvchilarda bilim olish va mehnat qilishga ruhan tayyorlashda ota-bobolarimiz maqol, topishmoq, ertaklardan foydalanish usullarini qo‘llaganlar. Ular bu usullar bilan bolalarda inson hayotida ilm va mehnatning o‘mi beqiyos ekanligi haqida tushuncha hosil qilganlar. Qadimda bolalarning yaxshi va namunali ishlari uchun rag‘batlantirish usuli bolalar tarbiyasida ijobji natija bergen. Bu usul namunali ish qilgan bolalarga nisbatan qo‘llanilgan: “barakalla”, “umringdan baraka top” kabi so‘zlar bilan bolaning ko‘ngli ko‘tarilgan va kelgusida har bir ishni yanada yaxshiroq bajarishga xohish istaklari ortib borgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi juda serqirra va serjilodir. Unda xalqimizning orzu-umidlari, qarashlari, hayoti keng bayon etilibgina qolmay, ularda bola tarbiyasining muhim xuxusiyatlari o‘z ifodasini topgan.

O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida rag‘batlantirish orqali nafaqat ularning xulq-atvori, psixologiyasi, ijtimoiy intilishi rivojlanadi balki, ularning bilimi, aqliy faoliyati, intellekti ortib borishi natijasida bilim olishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Quyidagi metod o‘quvchilarini rag‘batlantirishning interfaol usullaridan biri hisoblanib, uning asosiy urg‘usi bolaning bilimini oshirish va fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlash bilan bir qatorda ularni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashga qaratilgandir.

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma‘naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdirlik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, mehr-oqibat, do‘slik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xalq maqollari asrlar davomida sayql topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an‘analari, tarix va madaniyat, ta’lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to‘la namoyon etuvchi ko‘p qirrali hodisadir. Xalq og‘zaki ijodi tomonidan yaratilgan

maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Maqollar o‘z navbatida pedagogika sohasida, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli manbaa bo‘lib xizmat qiladi [9].

Metodni amalga oshirish bosqichlari: Dars boshida sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘lib olinadi. Har bir guruh uchun maxsus maqol yoki topishmoq tanlab olinadi. Maqol va topishmoqlarning har bir so‘zi qog‘ozlarga alohidadan yozib qirqib olinadi. Dars mobaynida guruh a’zolari o‘zlarining faol harakatlari va bergen barcha tog‘ri javoblari uchun maqol yoki topishmoqlarning so‘zlariga ega bo‘lishadi va asta sekin to‘plab borishadi. Dars yakunida bиринчи bo‘lib o‘z guruhining maqol yoki topishmog‘ini to‘liq yig‘ib yelim yordamida ularni birlashtirgan guruh g‘olib hisoblanadi. Metodni qo‘llaganda maqol yoki topishmoqlar mavzusi turlicha ammo, ular tarkibidagi so‘zlar soni barcha guruhi uchun bir xil va darslikdan olinmagan bo‘lishi shart.

Agar darsda guruh a’zolari tomonidan nojo‘ya harakatlar amalga oshirilsa yoki berilgan topshiriqlarga befarqlik, ugya vazifalari bajarilmagan bo‘lsa jazo tariqasida oxirgi qo‘lga kiritilgan so‘z qaytarib olib qo‘yiladi. So‘zlarni birlashtirib jumla hosil qilish uchun har bir guruhga yelma va kichik doskachalar beriladi. Dars so‘nggida har bir guruh sardori o‘z guruhi uchun berilgan maqolni izohlab beradi. Agar topishmoqdan foydalanilsa, topishmoqning javobini topib berishlari kerak bo‘ladi.

Maqol:

Ahil ishlasang, ish unar,	Do‘sting bilan dildosh bo‘l,
Har mushkul oson bo‘lar.	Qilar ishiga qo‘ldosh bo‘l.
	Qo‘rroq o‘lmasdan burun o‘lar,
	O‘likdan nima kutib bo‘lar.

Topishmoq:

Yelkasi bor, boshi yo‘q,	Uyga osdik bitta nok,
Oyog‘i bor, qo‘li yo‘q.	Yop-yorug‘ bo‘ldi hamma yoq.
Oz qo‘ysangiz: “sol” - deydi,	
Ko‘p qo‘ysangiz: “ol !” - deydi.	

Xulosa va takliflar. O‘quv jarayoni nafaqat kognitiv qiziqishni rag‘batlantirishga, balki bir qator boshqa rag‘batlantirishlarga ham asoslanadi, ular orasida mакtab o‘quvchilarining o‘qishdagi burch va mas‘uliyatini rag‘batlantirish ayniqsa muhimdir. Ushbu rag‘batlar o‘quvchilarga o‘rganishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, quvonchni his qilishlariga, bilim olishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishdan qoniqish hissini his qilishlariga imkon beradi. Stimulyatsiya jarayonini amalga oshirish esa bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi bilan bir qatorda uning kognitiv faoliyatiga ham ijobjiy ta’sir o‘tkazadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-aprelda PF-5712-sон Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”.
2. Adler A. Child education. London: Allen and Unwin, 1930.
3. Ananев B.G. Усуглии хақида замонавиي психология... Ленинград давлат университети, 1976 yil.
4. Ananев B.G. Pedagogik baholash psixologiyasi. <https://forpsy.ru/works/psihologiya-pedagogicheskoy-otsenki-g/>
5. Hillman B. V. va F. Shilds, Rag‘batlantirish jarayoni yo‘riqnomada: Uning mакtab yutuqlariga ta’siri va ishtirot etish xulq-atvori. Kanadalik maslahatchi, 1974. 8-b.
6. Ludwig D.J. and Maehr M.L., Changes in self-concept and behavioral preferences. “Child Development”, 1967.
7. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. / Пер. с англ. — СПб.: “Питер”, 2019. — 400 c.
8. Oliver V. O‘quvchilarning sinfdagi nojo‘ya xatti-harakatlariga rag‘batlantirishning ta’siri. Fan dok. diss... Arizona Universiteti 1974. 15-b.
9. Saidazimova S. Ta’lim-tarbiya jarayonida maqol va matallarning ahamiyati. <https://www.samdu.uz/uz/news/32768>
10. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.- T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil, 141- bet.